

# MADANIYAT, SAN’AT VA HUNARMANDCHILIK — XALQIMIZNING ULKAN MA’NAVIY MEROSI

## Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat va san’at sohasida boshqaruvni takomillashtirish, hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Xalqimizning ulkan ma’naviy merosi bor. Bugungi kunda odamlarning intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlari muttasil ortib bormoqda. Shu bois, madaniyat sohasida boshqaruv va moliyalashtirishni takomillashtirish, bu borada ilg’or xorijiy tajribani joriy etish ko’zda tutilmoqda.

Xususan, madaniyat markazlarida davlat-xususiy sheriklik yo’lga qo’yilib, ijodiy ishlanmalarni rag’batlantiruvchi startap loyihalar amalga oshiriladi. Yoshlarda vatanparvarlik hissinı kuchaytiruvchi, O’zbekiston brendini yaratuvchi tarixiy, ilmiy va animatsion milliy mahsulotlar qo’llab-quvvatlanadi.

Davlatimiz rahbari sohada ilg’or xorijiy tajribani bosqichma-bosqich joriy etish bo’yicha ko’rsatma berdi.

Ma’lumki, O’zbekiston Prezidentining qarori bilan Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti tashkil etilgan edi. Endi san’atkoming memorial muzeyini tashkil etish, Botir Zokirov nomidagi stipendiyanı joriy qilish, xalqaro estrada tanlovini o’tkazish rejalashtirilgan. Institutning bakalavriat bosqichini tamomlagan eng faol bitiruvchilar chet elga magistraturada o’qishga yuboriladi hamda iqtidorli talabalarning nufuzli xalqaro tanlovlardagi ishtiroki qo’llab-quvvatlanadi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrifi chog’ida xalq artisti Sherali Jo’rayev

xotirasini abadiylashtirish tashabbusini bildirgan edi. Shunga muvofiq, Andijon shahridagi san’at maktabi negizida ijodkor nomidagi musiqa va san’at oliy maktabi tashkil etiladi. Har yili Sherali Jo’rayev nomidagi milliy qo’shiqchilik teletanlovi o’tkaziladi.

Oliy maktabda ilmiy-ijodiy laboratoriya tuzilib, Sherali Jo’rayev qo’shiqlarining “oltin fondi” yaratiladi. Zamonaviy ovoz yozish va tasvirga olish studiyasi tashkil etilib, iqtidorli yosh ijodkorlar undan imtiyozli foydalanishi mumkin bo’ladi.

Hozir yurtimizda O’zbekiston davlat simfonik orkestri hamda filarmoniya tarkibida 8 ta professional orkestr faoliyat yuritmoqda. Lekin ular faqat Toshkent shahrida, respublika darajasidagi tadbirlarda ishtirok etadi, xolos.

Shu bois, bunday orkestrlarnı joylarda ham bosqichma-bosqich tashkil qilish rejalashtirilgan. Jumladan, Farg’ona viloyatida simfonik orkestr va milliy cholg’ular orkestri tuziladi. Ular zarur musiqa asboblari, ovoz kuchaytirish va yoritish uskunalari, sahna liboslari va boshqa anjomlar bilan ta’minlanadi.

Davlatimiz rahbari milliy va jahon san’atining sara asarlarini aholiga chuqur yetkazish, tuman va shaharlarga gastrol safarlari uyushtirish zarurligini ta’kidladi.

Madaniyati boy va rang-barang yurtimizda kreativ iqtisodiyot ravnaqi uchun juda keng imkoniyatlar bor. Bugungi kunda bu sohada 14 mingga korxona faoliyat yuritmoqda, ularda qariyb 100 ming kishi ishlayapti. Kelgusi 5 yilda kreativ iqtisodiyot hajmini 2 karra ko’paytirish, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan.

O’tgan yili bu borada qonun qabul qilindi. Toshkentda Kreativ iqtisodiyot bo’yicha to’rtinchi butunjahon konferensiyasi o’tkazildi. UNESCO, UNCTAD, Jahon intellektual mulk tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar, Fransiya, Italiya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Qatar kabi davlatlar bilan keng hamkorlik yo’lga qo’yildi.

Kreativ industriyaning eng katta soharalaridan biri — hunarmandchilik. Yilning o’tgan davrida bunday mahsulotlar eksporti 6,5 million dollarnı tashkil qildi.

Taqdimotda hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar ko’rib chiqildi. Jumladan, Buyuk Britaniya Qirollik fondi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida akademik platforma yaratish rejalashtirilgan. U orqali magistrlar tayyorlash, tadqiqotlar o’tkazish, o’quv qo’llanmalarini joriy etish yo’lga qo’yiladi. Bu platforma bilan 3 mingdan ziyod iqtidorli hunarmand bosqichma-bosqich qamrab olinadi.

Keyinchalik uni amaliy san’at maktabiga aylantirish ko’zda tutilgan.

2023-yilda Buxoro “Hunarmandchilik va xalq san’ati” yo’nalishida UNESCOning kreativ shaharlar tarmog’iga kiritilgan edi. U yerda 2 ming nafar hunarmand 36 ta yo’nalishda ijod qiladi.

Sentyabr-noyabr oylarida Buxoroda birinchi zamonaviy san’at biyennalesi o’tkaziladi. Unga 40 ta davlatdan 70 nafar mashhur rassom tashrif buyuradi.

Davlatimiz rahbari madaniy turizmni rivojlantirishga katta turtki beradigan bunday yirik tadbirlarnı yuqori saviyada tashkil qilish muhimligini ta’kidladi.

Turizm bo’yicha yana bir salohiyatli hudud — Qoraqalpog’iston. Hozir u yerda 2 ming nafar yoshlar milliy hunarmandchilik bilan professional shug’ullanyapti. Yana ko’plari shu kasblarnı egallamoqchi.

Shu bois, Nukusdagi “Istiqlol” bog’ini kreativ klasterga aylantirib, unda hunarmandlar va dizaynerlarga an’anaviy bilim va innovatsion g’oyalarnı birlashtirgan holda ta’lim beradigan Orol maktabini tashkil qilish mo’ljallangan.

Mutasaddilarga loyihalarnı sifatli bajarish va tadbirlarnı yuqori saviyada o’tkazish bo’yicha ko’rsatmalar berildi.

O’ZA

# YANGI LOYIHALAR VA YANGICHA ISHLASH ANDIJON VILOYATIDAGI ISLOHOTLAR NATIJADORLIGINI TA’MINLAYDI

## Davlatimiz rahbariga Andijon viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar yuzasidan axborot berildi.

O’zbekiston Prezidentining 2024-yil 18-noyabrdagi qarori bilan Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilangan edi. Jumladan, bu yil 3,1 milliard dollar investitsiya olib kelish, 1,5 milliard dollar eksport qilish, 305 ming odamning bandligini ta’minlash, 32 mingdan ziyod oilani kambag’allikdan chiqarish ko’zda tutilgan.

Viloyatda yil boshidan buyon 1 milliard dollarlik yangi quvvatlar, 344 ta savdo va servis majmuasi ishga tushgan. Yana 2,5 milliard dollarlik loyihalar boshlangan. O’tgan 6 oyda 850 million dollar investitsiya jalb etilib, eksport 465 million dollarnı tashkil etgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil apreldagi viloyatga tashrifi hamda unda belgilangan vazifalar hudud rivojiga qo’shimcha turtki berdi. Yaqinda ilmiy ekspertlar, faol tadbirkorlar ishtirokida “Islohotlar shtabi” tuzildi. Ular tomonidan iqtisodiy-ijtimoiy sohalariga oid yangi takliflar ishlab chiqilgan.

Taqdimotda mutasaddilar ularning asoslari va samaradorligi bo’yicha axborot berdi.

O’ZA

Masalan, 40 million dollar sarmoya evaziga Germaniya, Turkiya va Yaponiyadan robot-texnologiya olib kelib, innovatsion klinika barpo etish rejalashtirilgan. Yoki elchilar yordami bilan agroklaster tashkil qilishga Italiyadan 20 million yevro, zamonaviy agrolgistika majmuasi qurishga Germaniyadan 25 million yevro jalb etilishi mo’ljallangan. Xonobod shahri, Xo’jaobod va Buloqboshida turistik maskanlar tashkil qilish bo’yicha 30 dan ziyod tashabbuslar bildirilgan.

Umuman aytganda, 1 milliard 100 million dollarlik qo’shimcha loyihalar shakllantirilgan. Ularning natijasida 22 ming ish o’rni, qo’shimcha 200 million dollarlik eksport imkoniyati ochiladi.

Davlatimiz rahbari viloyatdagi har bir shahar va tumanga alohida yondashib, yangicha ishlash, yangi loyihalarnı investitsiyasi kam hududlarga joylashtirish zarurligini ta’kidladi. Ishsiz va ehtiyojmand oilalarnı o’qitib, ishga joylashtirish, mahallalarnı jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish bo’yicha ko’rsatmalar berildi.

O’ZA

# MUSTAQILLIK – ERKIMIZ, QADR-QIMMATIMIZ ASOSI, UMRIMIZ MAZMUNI



Bu yil mamlakatimiz mustaqillikka erishgani, ota-bobolarimiz orzu qilgan va hattoki, bu yo’lda jonini fido qilgan milliy istiqlolimiz qo’lga kiritilganiga 34 yil to’ladi. Bu ulug’ bayramning xalqimiz hayotida tutgan o’rni beqiyos. Zotan, milliy mustaqillik insonga taqdim etadigan erkinlik, hurlik butun umrimiz, hayotimiz mazmunining o’zagidir. O’zagi mustahkam bo’lmagan daraxt baland o’solmagani yoki o’sganida ham mo’rt bo’lgani kabi mustaqillik barqaror taraqqiyot garovidir. Shuning uchun ham bu kun xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotida beqiyos o’rin egallagan, har yili eng ulug’, eng aziz bayram sifatida katta shoduxurramlık bilan nishonlanadi.

Davomi 2-betda

## Islahot odimlari

# FAROVON TURMUSH, OILALARGA TO’KINLIK ULASHISH SHARAFI KASBIY KO’NIKMALAR MARKAZLARINI XALQQA YAQINLASHTIRADI

Odamlarnı ishli qilish, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo’lishida kasbiy ta’lim sifati juda muhim. Shu bois, mamlakatimizda keyingi yillarda ushbu jihatga alohida e’tibor qaratilayotgani Prezidentimizning aholi bandligini ta’minlash va kasbiy ta’lim tizimidagi yangi yondashuvlarga oid taqdimot bilan tanishish chog’ida yana bir bor qayd etildi.

Yurtimizda mazkur masala islohotlarning ustuvor yo’nalishi ekanligi ro’y berayotgan o’zgarishlarda, joylarda ishlarning izchil tashkil etilayotganida yaqqol ko’zga tashlanadi.

Davomi 5-betda

# MINTAQAVIY XAVFSIZLIK PARADIGMASI

XX asr so’nggida Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgan bo’lsa-da, o’rtalarida sovuq va ishonchsiz munosabatlar hukmron edi. Xalqlarimiz orasidagi tarixiy bog’liqlik o’rnini beqarorlik, tortishuv va shubha egallagandi.

Tarixiy, geografik va etnik jihatdan bir-biriga chambarchas bog’langan mamlakatlar savdo, chegara, xavfsizlik va suv resurslari masalalarida tortishuvlar girdobiga botib qolgandi. Mintaqadagi muammolar Markaziy Osiyoning rivojlanmasligidan manfaatdor kuchlar tomonidan sun’iy ravishda, qasddan paydo etilgandi. Chegaralardagi o’tkazish punktlari yopilgan, tog’lar minalashtirilgan, hech bir sohada hamkorlik, bordi-keldi yo’q, barcha aloqalar, qadriyat, til, tarix, din birligi kabi tushunchalar chetga surib qo’yilgan edi.

Mana shunday murakkab sharoitda 2016-yilda O’zbekiston boshqaruviga



## Buyuk o‘zbek yo‘li



Shavkat Mirziyoyev kelganidan so’ng Markaziy Osiyo davlatlari munosabatida mutlaqo yangi sahifa ochildi. Ochiqlik, yaxshi qo’shinchilikka asoslangan tashqi siyosat nafaqat mamlakat ichida, balki

butun hududda mustahkam xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratildi. Prezidentimiz tashqi siyosatda “avvalo, qo’shnilar” tamoyilini ilgari surdi. Yopiqlik, ishonchsizlik va ziddiyatlar soyasida

urush yoqasiga kelib qolgan qo’shinchilik munosabatlari izchil islohotlar tufayli mutlaqo yangi mazmun kasb etdi.

Davomi 3-betda

# DUNYODA – BIR KUN, YURTIMIZDA – BIR HAFTA “DO‘STLIK” FESTIVALI 25-31-IYUL KUNLARI TURLI MILLAT VAKILLARINI ATROFIGA JAMLAYDI

## 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni



Azal-azaldan o’zining do’stlik, birodarlik va bag’rikenglik an’analari bilan shuhrat qozongan qadimiy va betakror O’zbekiston zaminida hozirgi vaqtda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o’zaro tinch va ahil yashab, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo’shmoqda. Turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar, “Do’stlik” jamiyatlari va 157 ta milliy madaniy markaz erkin faoliyat ko’rsatib kelayotir.

Davomi 6-betda

# MUSTAQILLIK – ERKIMIZ, QADR-QIMMATIMIZ ASOSI, UMRIMIZ MAZMUNI



Munajat YO'LCHIYEVA, O'zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Yurtimiz rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan muhim yangilanish va islohotlar, ilm-fan yuksalishi, sport sohasidagi yutuqlar, turli jabhalarda izlanishlar olib borayotgan olimlirimizga yuksak e'tibor, respublikamiz iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining har bir sohasiga innovatsiyalarning joriy etilishi bo'yicha qilinayotgan sa'y-harakatlar bugun o'z samarasini bermogda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarishning tashkil etilishi buning yaqqol misolidir.

Mustaqillikning qadr-qimmatini va ahamiyatini yildan yilga ortib bormogda. Mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yib, barcha soha va tarmoqlarda yangilanish jarayonlari kechmogda. O'tgan davr erkin va farovon hayotni, buyuk kelajakni faqat va faqat mustaqillik asosidagina qurish mumkinligini ko'rsatdi. Bu vaqt ichida sud-huquq sohasida ham ulkan o'zgarishlar yuz berdiki, soha tubdan yangilandi, desak xato qilmagan bo'lamiz. 2023-yilda umumxalq referendumini asosida Konstitutsiyamizning yangilangani esa barcha yo'nalish va jabhalarda o'z samarasini ko'rsata boshladi.

Mustaqilligimizning 34 yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilishida ham teran ma'no borki, butun dunyoda siyosiy beqarorlik yuz berib turgan ayni kunlarda, bizning birlik, birdamlikka yanada ko'proq ehtiyojimiz bor. Binobarin, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida ham ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti — bizning bebaho boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



XXI asrda mehnat bozori misli ko'rilmagan o'zgarishlarga yuz tutaypti. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, iqlim o'zgarishiga mos kasblar va pandemiyadan keyingi yangi mehnat muhitlari tufayli dunyo bo'ylab kasb-hunar ta'limi tubdan yangilanyapti.

Endigi masala odamlarni doimiy ravishda o'zgaruvchan bozorlarga moslashishga tayyorlashdan iborat. Busharoitda O'zbekistonning joriy yilida boshlab amalga oshirilayotgan kasb-hunar ta'limi va bandlik siyosati nafaqat ichki islohot, balki global mehnat bozoridaq raqobatga moslashish yo'lida tashlanayotgan strategik qadamdir. Demak, endi jamiyatda kasb insonlar o'rtasidagi tenglikning kaliti degan yangi iqtisodiy paradigma shakllanadi.

Raqamlar shunchaki statistika emas, uning ortida jamiyatning ijtimoiy prognozlarini yashirigan. O'zbekiston bugun 5,2 million odamni band qilish, bir milliardon ortiq kishini kasbga o'rgatish, 1,5 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarishni rejalashtirmogda.

Agar raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2025-yilning birinchi yarimida 3 million fuqaroning bandligi ta'minladi. 725 ming kishi kambag'allikdan chiqarildi. Bu qisqa vaqt ichida erishilgan misli ko'rilmagan natija.

Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimizda mehnat bozorini isloh qilish, aholini kasbga yo'naltirish

## “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

va ijtimoiy himoyani kuchaytirish borasida olib borilayotgan siyosatning amaliy samarasini yaqqol namoyon etadi.

Agar global tajriba bilan solishtirilsa, bunday ko'lamdagi o'sish ko'pincha bir necha yillik dasturlar davomida kuzatiladi. Masalan, Janubiy Koreyada iqtisodiy yuksalish bosqichida bu darajadagi bandlik o'sishi ko'proq sanoat parklarini ishga tushirish va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'lanish orqali 3-5 yil ichida amalga oshirilgan. O'zbekiston esa ushbu ko'rsatkichga atigi olti oyda erishdi.

Bu yondashuvlar ijtimoiy yordam markazli passiv siyosatdan ishlab chiqaruvchanlik, ko'nikma va raqobatga asoslangan faol siyosatga o'tishni anglatadi. Bu yo'l Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya davlatlarida allaqachon tan olingan bandlik ijtimoiy integratsiyaning negizida turuvchi modelga yaqin. Shvetsiya, Germaniya yoki Niderlandiyada kambag'allikni kamaytirishning asosiy vositasi ish o'rnlari yaratish emas, fuqarolarni ishga tayyorlashdan iborat.

Mamlakatimizning bugungi yondashuvi ham ayni shu manzildan boshlab milliy sharoitlarga mos yo'nalishda harakatlanaypti. Bu boradagi salmoqli sa'y-harakatlar ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlanadi. Demak, endi tizimda ta'lim muassasalarining real iqtisodiyot sohasi bilan integratsiyalashuvi alohida o'rln tutadi. Ayni maqsadda joriy yilning sentyabr oyidan boshlab pilot loyiha yo'lga qo'yiladi. U maktab, texnikum va universitetlarni yagona ish beruvchilarning ehtiyojlari va iqtisodiyotning istiqbolli yo'nalishlariga mos kadrlar tayyorlash tizimiga birlashtiradi.

Yaqin-yaqingacha ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar muammolarini hal etish borasida davlat idoralariga ko'plab murojaat qilardi. Ularning aksariyati esa to'liq qanoatlanmagan. Negaki, ijtimoiy himoya muassasasining faoliyati faqat davlat tomonidan ajratilgan yordamlarni egalariiga yetkazishdangina iborat bo'lib qolgandi. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, faol hayotga jalb etish, aholining zaif qatlamini to'laqonli qo'llab-quvvatlash ishlari sust va manzilli yo'lga qo'yilmagan edi. Berilayotgan yordamlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar haqidagi qog'ozdagi hisobotlar ko'pincha haqiqiy holatni to'liq aks ettirmasdi.

# IJTIMOY HIMOYA AMALIY KO‘MAK TIZIMIGA AYLANDI

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatl ijtimo i xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) tashkil etilishi sohadagi islohotlarning tub burilish davri bo'ldi. Natijada o'tgan qisqa davrda soha misli ko'rilmagan o'zgarishlarga yuz tutdi. Buni Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlari misolida ham ko'rish mumkin.

— O'zbekiston Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgandan buyon o'tgan davrda ehtiyojmand toifani aniqlash bo'yicha yangi mezonlar ishlab chiqilib, ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilandi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i Nodirbek Sharipov. — O'rganishlar davomida 45 ming nogironlardan 11 ming nafarining ishlari imkoniyati va istagi borligi aniqlandi. Ayni paytda ularning 5 ming nafarini ish bilan ta'minlash tadbirlari amalga oshirilmoqda. Og'ir vaziyatdagi oilalarga ijtimoiy ish (keys) ochilib, ularga o'ziga mos xizmatlar ko'rsatilmoqda. Mahallalardagi ijtimoiy xodim “mahalla yetiligi”ni jalb etib, tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda ko'makka muhtoj oilalarda aniqlangan muammolarni bartaraf etmogda.

Bu ishda asosiy javobgarlik har bir mahalladagi ijtimoiy xodim zimmasiga yuklangani mas'uliyatni oshirib, samaradorlikka xizmat qilyapti. Ular ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir fuqaro muammosini, oilasining ehtiyojlarni chuqur o'rganib, keys usulida ko'mak beryapti.

Ma'lumki, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan. Bu zamonaviy ish uslubi mahalla ijtimoiy xodimlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va yuritilayotgan hisobotlarni raqamlashtirilgan holda amalga oshirishda qulaylik yaratdi. O'zgalar parvarishiga muhtoj hamda yolg'iz yashaydigan kexsalar va nogironligi bo'lgan shaxslar reyestri “IHMA Yolg'iz kexsa” tizimi orqali yuritiladi. Ularning ijtimoiy holati baholalanadi va ijtimoiy xodim assistentlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar monitoring qilib boriladi.

Kimningdir murojaat qilishini kutib o'tirmasdan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar muammolarini to'liq o'rganib chiqib, “mahalla yetiligi” bilan hamkorlikda tegishli yordam ko'rsataypmiz, — deydi Zafarobod tumani Yorqin mahallasining ijtimoiy xodimi O'ktirbek Fayzullayev. — Masalan, Gulmurodovlar oilasini o'rganish davomida keys ochildi. Shu asosda oila psixologik qo'llab-quvvatlandi, yuridik xizmatlar ko'rsatildi. Umuman, oilaning barcha ehtiyoji qamrab olindi. Natijada oila boshlig'iga qonuniy tartibda nogironlik rasmiylashtirildi. Ikki nafar

farzandi uchun ham nafaqa tayinlanib, ular bepul maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirildi. Hozir oila a'zolarining barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida bandlik boshqarmasi bilan hamkorlik qilyapmiz. Tez orada buni ham ijobiy hal etamiz.

Nogironligi bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash faqat moddiy tarafdin emas, ma'naviy qo'llab-quvvatlashda ham juda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda ijtimoiy xodimlar nogiron insonlarni imkoniyati darajasida, o'zlari ko'laydigan ish bilan ta'minlashga e'tibor qaratmogda. Shu orqali ular doim e'tibor va



e'zozda ekanini his etib, hayotdan rozi bo'lib yashayapti.

— Baxtsiz hodisa tufayli umurtqa pog'onam shikastlanib, nogiron bo'lib qolganman, — deydi Jizzax shahrida yashovchi Berdiyov Turatov. — Biroq inson har qanday holatda ham umidsizlikka tushmasligi kerak ekan. Avvaldan temir buyumlar yasash qo'limdin kelardi. Mahalla ijtimoiy xodimining ko'magida o'zim kabi harakat-tayanch a'zosi shikastlangan nogironlar uchun metaldan harakat qurilmasi yasayapman. Bu ish hayotimga yangi mazmun kiritdi. Jamiyat uchun kerakli odam ekanimni his qilyapman. Halol mehnat tufayli oilamga doimiy daromad olib kiriyapman. Mehnatim samarasi bo'lgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazishda ijtimoiy agentlik beminnat ko'mak beryapti. Ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallalarga, kasb kabi nogironlarning xonadonlariga ko'chirgani uchun davlatimiz rahbariga ming rahmat.

— Ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik hayotga, ertangi kunga ishonchimni mustahkamladi, — deydi Forish tumani Uxum mahallasida yashovchi Zokir Niyozov. — Ijtimoiy himoya agentligi tomonidan elektrda harakatlanadigan aravacha

berildi. Oilam kambag'allik ro'yxatiga kiritilib, bolalar nafaqasi belgilandi. Turmush o'trog'im menga qarovchi sifatida rasmiylashtirildi. Bu ishlarning barini amalga oshirishda mahalla ijtimoiy xodimi beminnat yordam ko'rsatdi. Mendek mustaqil harakatlanay olmaydigan, o'zgalar yordamiga muhtoj insonlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan behad minnatdormiz.

Jizzax shahar Nuroniyar maskanida katta yoshdagi va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan nogironligi bo'lgan kexsalarini faol hayotga jalb etish loyihasi bo'yicha ham ibratli ishlari amalga oshirilmoqda. Maskanda nuroniyar uchun 10 ga yaqin turli to'garaklar tashkil etilgan. Haftanig

ikki kuni qariyalar uchun sog'lomlashtirish, sportning shaxmat, shashka, shuningdek, to'quvchilik, bichuvchilik, tikuvchilik, kashatichilik, pazandachilik, bog'dorchilik va boshqa to'garaklar tashkil etilgan. Unda yetuk mutaxassislar yakka yolg'iz, nogironligi bo'lgan qariyalari bilan shug'ullanadi. Asosan, reyestr ro'yxatida turuvchi bu qariyalari uchun tez-tez turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport bellashuvlari, viktorina va tanlovlar ham o'tkazilib turiladi. Xususan, Do'stlik tumanidagi “Adaptiv sport” maktabida ham bu borada ibratli ishlari amalga oshirilmoqda.

Huddudlardagi ixtisoslashtirilgan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ota-onaga ijtimoiy hordiq” tamoyili asosida “G'amxo'rlik guruhlari” tashkil etilmogda. Bundan maqsad nogironligi bo'lgan farzandi parvarishidan ruhan va jismonan toliqgan ota-onalarga hordiq chiqarish yoki biror mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratishdir. Viloyatda bunday ixtisoslashtirilgan 4 ta maktab va 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud.

Joriy yil 10-may kuni Prezidentimizning “Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilingan edi. Tizimda ushbu qaror asosida ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmogda. Xususan, huddudlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya erduri talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etildi.

Turmushimdagi og'ir zarbalardan va moddiy jihatdan qiynalib, ruhiy tushkunlikka tushib qolganidim, — deydi Sharof Rashidov tumanida istiqomat qiluvchi D.Donisheva. — “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixolog Saodat G'azmullova tomonidan o'tkazilgan bir necha bosqichli muolajalar natijasida asta-sekin holatim yaxshilandi. Hayotga bo'lgan ishonchim va kuchim tiklandi. Yana farzandlari uchun yashaydigan, o'zim uchun kurashadigan insonga aylandim. Hammasi uchun rahmat.

Yaqinda Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan yana bir ibratli ish — “Sen bilimagan qahramon” viloyat loyihasini amalga oshirish boshlandi. Mediatlari omnaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihada jismoniy imkoniyati cheklangan, ammo uni mardonavon yengib, faol hayot kechirayotgan, faqat o'ziga emas, jamiyatga naf keltirayotgan irdotali kishilar haqida hikoya qilinadi.

Albatta, bular Agentlik tomonidan hudduda amalga oshirilayotgan ishlardan ayrim misollar, xolos. Bugun tizimda 250 turtida ijtimoiy xizmat ko'rsatilmoqda. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami vakillari bilan 7 ta yirik yo'nalishda ish olib borilmogda. Tizim xodimlari mahalla yetiliklari bilan hamkorlikda har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroni davlatimiz g'amxo'rligidan bahramand etish uchun zimmasidagi mas'uliyatni teran tushunib ish boryapti. Bu kabi amalga oshirilayotgan ishlari mamlakatimizda barcha uchun teng imkoniyatli va adolatli jamiyat yaratishga xizmat qilishi shubhasiz.

aniqlanib, ularga homiylik tayinlandi. Nogironligi bo'lgan yana 15 nafar bola reabilitatsiya qilindi.

Yana bir muhim o'zgarish, Ijtimoiy himoya milliy agentligi ichki ishlari tizimidagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqli yordam ko'rsatish markazi bilan hamkorligi yangicha shaklda yo'lga qo'yildi. Endi vaqtinchalik yashash maskanlaridagi bolalarga barcha sharoit yaratilishiga doim e'tibor qaratilmogda. Markazga olib kelingan har bir voyaga yetmagan bola tibbiyot xodimi, ruhsunos, tarbiyachilarning doimiy nazoratiga olingan.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar muassasalari bilan hamkorlikda ishlash ham yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, ijtimoiy agentlik Jizzax shahridagi 32-maktab-internet g'amxo'rlik jamoasi bilan ham yaqin hamkorlikda muassasa tarbiyalanuvchilariga yetarli sharoit yaratishga doimiy e'tibor qaratyapti.

— Maktab-internatimiz Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag'lari hisobidan maxsus jihozlar bilan yetarlicha ta'minlandi, — deydi muassasa direktori Nodir Inatov. — Hozir 279 nafar imkoniyati cheklangan, aqli zaif o'g'il-qizga ta'lim-tarbiya va muolajalar beryapmiz. Ijtimoiy agentlik hamkorligida muassasamiz qoshida 4-6 soatlik “G'amxo'rlik guruhi” tashkil etilgan. Ushbu guruhga tayanch harakatlarda, qo'l, yuz va boshga a'zolarida, ruhiyatida, nutqida nuqsoni bor bolalarni ota-onalari olib kelib, malakali mutaxassislardan muolaja oladi.

Huddudlardagi ixtisoslashtirilgan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ota-onaga ijtimoiy hordiq” tamoyili asosida “G'amxo'rlik guruhlari” tashkil etilmogda. Bundan maqsad nogironligi bo'lgan farzandi parvarishidan ruhan va jismonan toliqgan ota-onalarga hordiq chiqarish yoki biror mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratishdir. Viloyatda bunday ixtisoslashtirilgan 4 ta maktab va 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud.

Joriy yil 10-may kuni Prezidentimizning “Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilingan edi. Tizimda ushbu qaror asosida ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmogda. Xususan, huddudlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya erduri talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etildi.

Turmushimdagi og'ir zarbalardan va moddiy jihatdan qiynalib, ruhiy tushkunlikka tushib qolganidim, — deydi Sharof Rashidov tumanida istiqomat qiluvchi D.Donisheva. — “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixolog Saodat G'azmullova tomonidan o'tkazilgan bir necha bosqichli muolajalar natijasida asta-sekin holatim yaxshilandi. Hayotga bo'lgan ishonchim va kuchim tiklandi. Yana farzandlari uchun yashaydigan, o'zim uchun kurashadigan insonga aylandim. Hammasi uchun rahmat.

Yaqinda Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan yana bir ibratli ish — “Sen bilimagan qahramon” viloyat loyihasini amalga oshirish boshlandi. Mediatlari omnaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihada jismoniy imkoniyati cheklangan, ammo uni mardonavon yengib, faol hayot kechirayotgan, faqat o'ziga emas, jamiyatga naf keltirayotgan irdotali kishilar haqida hikoya qilinadi.

Albatta, bular Agentlik tomonidan hudduda amalga oshirilayotgan ishlardan ayrim misollar, xolos. Bugun tizimda 250 turtida ijtimoiy xizmat ko'rsatilmoqda. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami vakillari bilan 7 ta yirik yo'nalishda ish olib borilmogda. Tizim xodimlari mahalla yetiliklari bilan hamkorlikda har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroni davlatimiz g'amxo'rligidan bahramand etish uchun zimmasidagi mas'uliyatni teran tushunib ish boryapti. Bu kabi amalga oshirilayotgan ishlari mamlakatimizda barcha uchun teng imkoniyatli va adolatli jamiyat yaratishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Farhod NE'MATOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

yilning 1-iyul holatiga ko'ra kambag'allik darajasi 6,8 foizni tashkil qildi.

Shu bilan birga, bugun ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, malaka oshirishni yangi darajaga ko'tarish hamda xususiy sektor ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Kasbiy ta'limning mehnat bozori ehtiyojlariiga mos kelmasligi kadrlar tayyorlashda muayyan muammolarga sabab bo'lmoqda. Mehnat munosabatlariidagi ayrim me'yorlar tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, kichik korxonalar uchun murakkablik tug'dirmogda.

Shuningdek, amaldagi talablar ish beruvchilarni haqiqiy vakansiyani ochiq e'lon qilishga rag'batlantirmaydi. Oqibatda bu ma'lumotlarni yashirishga olib kelib, mehnat bozorini to'g'ri tahlil qilish hamda kasbiy ta'lim yo'nalishlarini aniqlash imkonini cheklamogda.

Taqdimotda mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan yangi reja va tashabbuslar haqida ma'lumot berildi.

Kasbiy ta'lim sifatiini yanada oshirish maqsadida xususiy sektor vakillarini Kasbiy ko'nikmalar markazlari faoliyatiga jalb etish, ayrim markazlarni esa aniq sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlariga aylantirish rejalashtirilgan. Buning uchun kasbiy ta'limni uch bosqichli tizimga o'tkazish vazifasi qo'yildi. Jumladan, internet orqali bepul videodarslarni joriy etish, ishlovchi fuqarolarga qayta tayyorgarlik yoki malaka oshirish uchun “kasb vaucheri” orqali imkoniyat yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Bir so'z bilan aytganda, malakali kadrlar tayyorlash ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladigan eng muhim omillardan biri. Joriy yilga mo'ljallangan reja va dasturlar mamlakatning keng ko'lami islohotlarga tayyorligini ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy, moslashuvchan va samarali mehnat bozorini yaratishga qaratilgan. Faqat shunday tizim va kompleks yondashuv orqali global o'zgarishlar sharoitida iqtisodiyot va jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun zarur malakali kadrlar tayyorlanadi.

**Lutfulla SUVONOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

# MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARIGA MOS KASBIY TA'LIM ISHSIZLIK VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA XIZMAT QILADI

XXI asrda mehnat bozori misli ko'rilmagan o'zgarishlarga yuz tutaypti. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, iqlim o'zgarishiga mos kasblar va pandemiyadan keyingi yangi mehnat muhitlari tufayli dunyo bo'ylab kasb-hunar ta'limi tubdan yangilanyapti.

Endigi masala odamlarni doimiy ravishda o'zgaruvchan bozorlarga moslashishga tayyorlashdan iborat. Busharoitda O'zbekistonning joriy yilida boshlab amalga oshirilayotgan kasb-hunar ta'limi va bandlik siyosati nafaqat ichki islohot, balki global mehnat bozoridaq raqobatga moslashish yo'lida tashlanayotgan strategik qadamdir. Demak, endi jamiyatda kasb insonlar o'rtasidagi tenglikning kaliti degan yangi iqtisodiy paradigma shakllanadi.

Raqamlar shunchaki statistika emas, uning ortida jamiyatning ijtimoiy prognozlarini yashirigan. O'zbekiston bugun 5,2 million odamni band qilish, bir milliardon ortiq kishini kasbga o'rgatish, 1,5 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarishni rejalashtirmogda.

Agar raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2025-yilning birinchi yarimida 3 million fuqaroning bandligi ta'minladi. 725 ming kishi kambag'allikdan chiqarildi. Bu qisqa vaqt ichida erishilgan misli ko'rilmagan natija.

Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimizda mehnat bozorini isloh qilish, aholini kasbga yo'naltirish

## “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

va ijtimoiy himoyani kuchaytirish borasida olib borilayotgan siyosatning amaliy samarasini yaqqol namoyon etadi.

Agar global tajriba bilan solishtirilsa, bunday ko'lamdagi o'sish ko'pincha bir necha yillik dasturlar davomida kuzatiladi. Masalan, Janubiy Koreyada iqtisodiy yuksalish bosqichida bu darajadagi bandlik o'sishi ko'proq sanoat parklarini ishga tushirish va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'lanish orqali 3-5 yil ichida amalga oshirilgan. O'zbekiston esa ushbu ko'rsatkichga atigi olti oyda erishdi.

Bu yondashuvlar ijtimoiy yordam markazli passiv siyosatdan ishlab chiqaruvchanlik, ko'nikma va raqobatga asoslangan faol siyosatga o'tishni anglatadi. Bu yo'l Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya davlatlarida allaqachon tan olingan bandlik ijtimoiy integratsiyaning negizida turuvchi modelga yaqin. Shvetsiya, Germaniya yoki Niderlandiyada kambag'allikni kamaytirishning asosiy vositasi ish o'rnlari yaratish emas, fuqarolarni ishga tayyorlashdan iborat.



Bunday yondashuv nafaqat kasb-hunar ta'limi sifatiini oshiradi, balki nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovutni qisqartiradi. Bunda ilmiy tadqiqotlarni ta'lim jarayoniga faol tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu orqali amaliy masalalarni hal qiladigan va turli sohalarda innovatsiyalarni ilgari sura oladigan mutaxassislarni yetishtirish mumkin.

Shuningdek, nodavlat ta'lim sektoriga ham alohida e'tibor qaratilmogda. Kasb-hunar ta'limining umumiy hajmdagi ulushini 30 foizga yetkazish ko'zda utilmogda. Shu orqali sifati ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi, raqobat kuchayadi va natijada kadrlar tayyorlash darajasi oshadi.

Bundan tashqari, joriy yilda 42 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport hajmini 30 milliarddan oshirish bo'yicha rejalar mamlakatimizda yuksak salohiyatga ega iqtisodiy taraqqiyot yo'lga qo'yilganini bildiradi. Bu esa o'z navbatida, zamonaviy va malakali kadrlarning mavjudligiga bevosita bog'liq.

Yana bir muhim jihat: “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ta'lim tizimi islohotlariga alohida e'tibor qaratilib, kasbiy ta'lim hajmini ikki barobarga oshirish belgilangan. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimida “Ta'lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb

“Agar Markaziy Osiyoni bir organizm deb tasavvur qilsak, u holda bu organizmdagi “tromblar”, ya’ni yillar davomida yig‘ilib qolgan muammolar, sun’iy to‘siq va ishonchsizliklar butun tanada qon aylanishini izdan chiqargan edi. Ana shu to‘siqlar mohirlik bilan ochildi. Mintaqada muloqot, hamkorlik va rivojlanish erkin oqim rejimiga tushdi.



uchun maxsus logistika markazi ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida O‘zbekiston — Afg‘oniston chegarasida faoliyat yuritayotgan “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasining Markaziy Osiyoda hozircha muqobili yo‘q. EIZ 36 gektar maydonda joylashgan va Afg‘oniston, Pokiston hamda boshqa mamlakatlar tadbirkorlariga sanoat, iste‘mol tovarlari savdosini o‘stirishda yordamchi bo‘lmoqda. Uning yillik savdo hajmi 1 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Afg‘onistonga faqat iqtisodiy emas, balki insonparvarlik yordami ko‘rsatishda ham faol. Qo‘shni hududda keyingi yillarda boshlangan inqiroz paytida O‘zbekiston yuk avtomobil karvonlari orqali oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak kabi yordam yubordi.

Shu bilan birga, Termiz shahrida Afg‘oniston yoshlari uchun maxsus ta‘lim markazi tashkil qilingan. U yerda afg‘on talabalari kasb-hunar va til o‘rganish imkoniyatiga ega. Bu kelajakda afg‘on jamiyatini modernizatsiya qilishga qo‘shiladigan bilimli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining Afg‘onistonga nisbatan yuritayotgan siyosati geosiyosiy muvozanat, pragmatizm va tinchlikparvarlik asosiga qurilgan. Terrorizm va xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashda O‘zbekiston kuch ishlatish emas, muloqot va hamkorlikni ustuvor deb biladi.

### Siyosiy iroda va mintaqaviy barqarorlik

O‘zbekistonning xavfsizlikni ta‘minlashdagi asosiy yutug‘i geosiyosiy o‘yinlar emas, balki diplomatiya, ishonch va sheriklikka asoslangan yondashuvdir. U tashqi siyosatda harbiylashtirish, ziddiyatni kuchaytirish emas, balki barqaror rivojlanishga asoslanadi.

Bugun Markaziy Osiyoda yashayotgan millionlab odamlar tinchlik va barqarorlik mevasini tatimoqda. Bu natijaning zamirida esa kuchli siyosiy iroda va haqiqiy yaxshi qo‘shnichilik falsafasi yotadi.

Markaziy Osiyodagi ziddiyatli vaziyatlar, uzoq yillik nizolar, minalar va yopiq chegaralar o‘miga hozir o‘zaro ishonch, diplomatik muloqot hamda barqaror hamkorlik rivojlanmoqda. Ushbu siyosiy iroda, xalqparvar siyosat, tinchlikka intilish natijasidir. Bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat ichki, balki mintaqaviy xavfsizlikda ham yetakchi, ishonchli hamkor sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekistonning xavfsizlik siyosati samaradorligini baholashda quyidagi mezonlarni aytish mumkin:

**Birinchi mezon** — mojarolarning oldini olish samaradorligi. So‘nggi yillarda mintaqamizda yirik harbiy mojarolar yuz bermagani, mavjud ziddiyatlar diplomatik

### O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosati — namuna

O‘zbekiston va Afg‘oniston 144 kilometr chegaraga ega, u asosan Surxondaryo viloyati hududida joylashgan. Mazkur hudud so‘nggi o‘n yilliklarda maxsus nazoratda bo‘lib keldi.

2016-yilgacha Termiz — Hayraton temir yo‘li xavfsizlik nuqtayi nazaridan qator cheklavlar bilan ishlagan. Keyingi yillarga kelibgina Afg‘oniston bilan yaqin, lekin ehtiyotkor hamkorlik siyosati yo‘lga qo‘yildi.

2018-yil mart oyida O‘zbekiston tashabbusi bilan Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent konferensiyasi tashkil etildi. Unda 20 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilot,



jumladan AQSH, Rossiya, YI, Xitoy va Eron vakillari ishtirok etdi. Konferensiyada asosiy urg‘u Afg‘onistonda tinchlik jarayonini qo‘llab-quvvatlash, siyosiy muzokaralar yo‘lini ochish va mintaqada xavfsizlikni ta‘minlashga qaratildi.

Ushbu konferensiya O‘zbekistonning diplomatik nufuzini oshirish bilan birga, Markaziy Osiyoning tinchlikparvar platforma sifatida shakllanishiga turki bo‘ldi.

2021-yilda AQSH qo‘shinlari Afg‘onistondan chiqib ketgach, “Tolibon” harakati mamlakatda hokimiyatni qo‘lga oldi. Bu hodisa ko‘plab davlatlar uchun siyosiy muammo tug‘dirdi. Biroq O‘zbekiston hukumati Afg‘onistonda hokimiyat almashinuvi inkor qilmay, muloqotni to‘xtatmadi. Toshkentda “Tolibon” rahbariyati bilan bir necha bor muzokaralar o‘tkazildi.

Bu jarayonlarda asosiy maqsad chegara xavfsizligini ta‘minlash, shu bilan birga, insonparvarlik va iqtisodiy hamkorlikni davom ettirish bo‘ldi.

O‘zbekiston Afg‘onistonni Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi ko‘priksifatida ko‘radi. Shu maqsadda Termiz — Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘lini qurish bo‘yicha uch tomonlama loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalish Janubiy Osiyo tovarlarining Markaziy Osiyo orqali Yevropaga chiqishini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistondan elektr energiyasi va oziq-ovqat mahsulotlarini Afg‘onistonga yetkazib berish davom etmoqda. Termizda Afg‘oniston yuklari

faollashdi, aholining doimiy bordi-keldilari tiklandi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlari haqiqiy strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilib, mintaqaviy barqarorlikka xizmat qilmoqda.

### “Poyga” emas, sheriklik

Yaqin o‘tmishga nazar solsak, ko‘p hollarda qiyoslash mantig‘i bilan tilga olingan ikki qo‘shni davlat — O‘zbekiston va Qozog‘iston mintaqa yetakchiligi uchun go‘yoki “poygachi”dek tasvirlangan. Ayrim tahlilchilar har ikki davlatning iqtisodiy o‘sishi, tashqi siyosatdagi faolligi va mintaqadagi ta‘siri orqali ularni raqobatchi sifatida ko‘rsatishga urinadi. Ammo amaliyotda bu “poyga” hech qachon bo‘lmagan.

Davlatimiz rahbarining Afg‘onistonga nisbatan yuritayotgan siyosati geosiyosiy muvozanat, pragmatizm va tinchlikparvarlik asosiga qurilgan. Terrorizm va xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashda O‘zbekiston kuch ishlatish emas, muloqot va hamkorlikni ustuvor deb biladi.

Chunki haqiqat shundaki, Qozog‘iston iqtisodiy islohotlar, jahon bozoriga integratsiya va investitsiya jalb etish borasida juda ilgirilab ketgan edi. Ularning tashqi siyosatdagi ochiqchiligi va diplomatik pozitsiyasi ham xalqaro maydonda muayyan obro‘ egallashiga olib keldi.

O‘zbekiston esa uzoq yillar yopiq siyosat, cheklangan aloqalar va ichki izolyatsiya sharoitida harakat qilgan. Bunday vaziyatda hatto qo‘shni Qozog‘iston bilan to‘liq ishonchga asoslangan hamkorlik shakllanmagandi. Chegara muammolari, byurokratik to‘siqlar, iqtisodiy aloqalardagi murakkab mexanizmlar ikki tomonlama munosabatlariga soya solib keldi.

O‘zbekistondan yangi siyosatni tubdan o‘zgardi. Mamlakatimizning yangilangan tashqi siyosiy tamoyillari O‘zbekiston — Qozog‘iston munosabatlari

munosabatlarning kun tartibidagi barcha muhim qarorlarini qabul qildi. Bu tarixiy uchrashuvlar natijasida ikki davlat o‘rtasidagi uzoq yillik sukunatga chek qo‘yildi.

Chegaralar ochilishi minglab oilalar uchun nafaqat logistika, balki “qalb ko‘p-rigi”ni tikladi. Ilgari quda bo‘lish yoki qiz uzatish masalasi ko‘tarilganda, “Chegaradan o‘ta olmasak-chi?” degan xavotir barcha niyatlarga soya solardi. Bugun esa bu devorlar olib tashlandi, o‘mini samimiylilik va ochqlik egalladi.

Sariosiyolik Nodira ona 20 yil avval Tojikistonga qiz uzatgandi. Shunday vaqlar bo‘ldiki, farzandi bilan faqat telefon orqali suhbatlashar, nevaralari ovozinini eshitib yig‘lardi. Endi esa har oy ziyoratga boradi. Birgalikda to‘ylarda qatnashish, bolalar baxtini ko‘rish imkoni paydo bo‘ldi. Quda-andalikning haqiqiy mazmuni tiklandi. Oldin “kelolmadik, kechirasizlar” deyishardi, endi esa istagan vaqtda ko‘rishga oladi.

Qisqasi, chegaralar ochilishi orqali nafaqat yo‘llar, balki yuraklar ham ochildi.

### Chegara emas, do‘stlik chizig‘i

“Qo‘shning tinch — sen tinch”, deydi xalqimiz. Bu ma‘naviy haqiqat nafaqat shaxsiy hayotda, balki davlatlararo munosabatlarda



pullalaridanoq qo‘shni davlatlarga tashrif buyurib, siyosiy muloqot va samimiy munosabatlar yo‘lini ochdi. Binobarin, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, **“O‘zbekiston hech qachon qo‘shinlari bilan muammoli munosabatlarda bo‘lmagligi kerak. Qo‘shnichilik — taqdir masalasi”**.

Bu so‘zlar rasmiy shior emas, balki siyosiy falsafa edi. Yangilangan tashqi siyosatimiz esa bu falsafani hayotga tatbiq etdi.

### Chegara va xavfsizlik: tarang munosabatlarning hal etilishi

O‘zbekiston — Tojikiston munosabatlari uzoq yillar davomida muzlab qolgandi. Chegaralar yopiq, minalar bilan to‘siq bo‘lgan, transport qatnovi to‘xtagan edi. Ikki mamlakatda yashaydigan qon-qarindoshlarning bordi-keldi munosabatlari uzilgan, bir-birini ko‘ra olmasdi.

2018-yil martda 27 yil ichida O‘zbekiston Prezidentining Tojikistonga ilk davlat tashrifi amalga oshirildi. O‘sha yili avgust oyida Tojikiston Prezidentining mamlakatimizga oliy darajadagi tashrifi uyushtirildi. Dushanbe va Toshkentdagi muzokaralarda

ham beqiyos ahamiyatga ega. Buni biz juda yaxshi anglaymiz.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi davlat chegaralari masalasi uzoq yillar davomida eng murakkab va nozik muammolardan biri bo‘lib keldi. Mustaqillikning ilk yillarida chegara aniq belgilanmagani sababli turli kelishmovchiliklar, mahalliy nizolar va hatto to‘qnashuvlar yuzaga kelgan.

Ayrim chegara hududlarida yer, suv va mol-mulk ustidan tortishuvlar kuzatilgan, bu esa ikki xalq o‘rtasida ishonchsizlikni kuchaytirgan. Bir necha bor harbiy texnika chegara hududiga tortilgan, urush holatiga yaqin vaziyatlar yuzaga kelgan. O‘nlab marta muzokaralar o‘tkazilganiga qaramay, amalda ijobiy natijaga erishib bo‘lmagan.

Prezidentimiz Qirg‘iziston bilan tom ma‘nodagi yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan yangi siyosatni boshladi. Muzokaralar natijasida davlat chegaralari to‘liq delimitatsiya va demarkatsiya qilindi. Bu tarixiy kelishuv ikki davlat o‘rtasidagi uzoq yillik ishonchsizlikka barham berdi va chegara hududlarida tinchlik muhitini tikladi. Chegaralar ochilishi bilan savdo-sotiq, logistika, ta‘lim va madaniy aloqalar



## ENERGIYA ENDI MUAMMO EMAS, DAROMAD KELTIRMOQDA

Yaqin yetti-sakkiz yil ilgari elektr ta'minotidagi uzilishlar ko'plab muammolarning asl sababchisi edi. Hatto ko'pgina tuman, shahar shifoxonalarida chiroq o'chishi oqibatida qancha ko'ngilsizliklar ro'y berardi. Qo'lida fonus ko'tarib, bemorga yordam berishga shoshilgan shifokorlar bu kunlarni yaxshi xotirlasa kerak. Qishloqlardagi holatni yodga olib, achinmay ilojingiz yo'q. Gohida bir soatgina yongan chiroq hafta davomida ko'rinish bermay toliqtirardi. Chiroqqa termilib qancha tonglar otmadi deysiz. O'shanda allaqachon elektr orqali ishlashga moslashtirilgan tegirmonlar chang bosgancha qolib, yana suv tegirmonlarga qaytishga majbur bo'lingandi.

Shukrki, yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori aynan elektr energiya ta'minotidagi islohotlar sabab bunday ko'ngilsizliklar barham topdi. Bugun elektr uzluksizligi bilan birga yangi bosqich sari qadam tashlanmoqda. Ya'ni muqobil energiya manbalaridan foydalanish uchun imkoniyatlar ishga solinyapti. Nafaqat turli tashkilot va korxonalarda, aholi xonadonlarida ham bu tizim joriy etilayotgani quvonarli.

### Oyiga to'rt million so'm...

Mahalla guzariga pensiya olish uchun jo'nagan Bobomurod ota o'y surib borardi. Uch kundan beri kichik nabirasi xarxasha qiladi. Emishki, futbol o'ynash uchun butsa kerak ekan. Hamma tengdoshining oyog'ida bor emish. Kamiga kampiri ro'zg'orga kerakli narsalar ro'yxatini aytgan. Bozorga borish kerak. Xullas, hisobi bo'yicha oladigan pensiyaning deyarli barchasi sarflanadi. Endi kampiridan "qarz" so'ramasa bo'lgani.

Bobomurod ota allaqachon tengdoshlari guzarda to'planib o'tirganini ko'rib, xursand bo'ldi. Odam taftini odam oladi-da. Hali bank xodimlari kelguncha bir oz hangomalashishga nima yetsin? Pulini olgach, bu qariyalarning birortasini tutib bo'lmaydi. Hammasi o'z tashvishi bilan har yoqqa jo'nab ketadi.

Jazirama etralabdan yelkaga igna sanchadi. Issiq zabtiga olmasdan bankirlar kelsa yaxshi edi. Shunday o'y bilan safdoshlari oldiga yetib borgan otaxon bir chetga o'tirdi. Davrada o'tirgan yoshi ulug'roq mo'ysafid ko'chasi yangi asfalt qilingan otaxondan yo'sozlikning asosi haqida so'raydi. Unga javoban "Ochiq byudjet"da yutishganini tushuntirgan bo'ladi, sal oldinroq qishloq yoshlari ovoz olib yurganini eslatib. Mo'ysafid ularni duo qiladi. Yana kimdir ko'chaga oqova suv kelayotgani haqida xushxabar aytadi. Birovi qo'shnisi quyosh panellardan foyda ko'rayotgani haqida gapiradi. Muqobil energiya imkoniyatidan to'la xabari bo'lmaganlar bunga ishonmaydi. Tortishuv boshlanadi. Kimdir jahli chiqqancha: "Lofni ham olasan-da, uyiga ikkita chiroq yoqqan bo'lishi mumkin. Ammo qanday qilib pul ishlaydi", deya e'tiroz bildiradi. Buni boshqalar ham ma'qullaydi. Shu palla uzoqdan bankirlarning mashinasi ko'rinib, avj guringga yakun yasalandi.

Navbat boshlanib, birma-bir har kim o'z ulushini olishni boshlaydi. Bobomurod ota o'zinikiga qo'shib kampirining ham pensiyasini olib uyga jo'naydi. Toki darvozasiga yetguncha yana bir bor pensiyasini xayolida taqsimlab oladi. Oftob qizdirishni boshlagani uchun kechki salqinda bozorga borishni mo'ljal qiladi. Hozir uyga kirib, sovitkichni qo'shgancha bir oz dam oladi. Shu niyatda hovliga kirarkan, uni ko'rgan kampiri norozi ohangda ovoziini balandlatdi.

— Shu qurg'ur elektrga ko'proq pul to'lab qo'ysa nima bo'larkan? Har ikki kunda o'chgani-o'chgan. Issiqda o'tinib bo'lmay qoldi. Ana, ertalabdan yana o'chib qoldi. Endi pulini to'lmasak, yonmaydi.

Ota jahli chiqqancha qaytib ko'chaga chiqdi. Elektr to'lovini to'lash uchun shoxobchaga borib, anchagina qarz ham bo'lib qolganini bildi. Qo'lidagi pensiyadan ham qarzni to'lab, ham oldidan elektrga to'lov qildi. Boyagi chamalagan narsalari bir zumda o'zgarib ketdi. Axir elektr uchun anchagina pul sarf etgandi. Shu payt haligina guzarda kimdir quyosh nuridan pul ishlayotgani haqida gapirganini esladi. Qadamini tezlatgancha o'sha tomon ketdi.

Ertasi kuni ikki o'g'lini chaqirib, maslahat soldi. Mashina olmoqchi bo'lib yiqqan pullariga uyiga quyosh paneli o'rnatish kerakligini uqtirdi. Farzandlari bir oz norozilik bildirgan bo'ldi. Ammo ota qat'iy turib, o'rnatish



kerakligini aytdi. Narigi ko'chada aynan quyosh paneli o'matgan uyni borib, ko'rib kelganini, uning qulayliklarini gapirdi. Ertasi kuni xonadonning tom qismiga soha mutaxassislari tomonidan 20 kVtli quyosh paneli o'rnatildi.

— Ishonassizmi, shu quyosh panelini oldinroq o'rnatask bo'larkan. Shunchalik katta imkoniyatdan foydalanmay yurganimizga afsuslandim, — deydi chiroqchilik Bobomurod ota Suyunov. — Avval bir oyda elektr uchun kamida bir milliarddan ziyod pul to'lashga majbur edik. Sababi, tomorqamiz katta. Dehqonchilik qilish uchun suv kerak. Suvni artezian qudug'idan nasos orqali tortib olamiz. Nasosga ko'p elektr sarflanadi. Shu bois, hisob anchagina bo'lardi. Hozir suv qicharishda ham shu muqobil energiyadan foydalanayapmiz. Umuman olganda, ancha qulay ekan.

Yana bir ma'qul bo'lgan tomoni. Ilgari faqat pul to'lab kelgan bo'lsak, bugun davlatga elektr sotib, daromad ishlayapmiz. Ehtiyojimizdan ortganini hisoblasak, kuniga o'rtacha 130-140 ming so'm bo'lyapti. Bu bir oyda to'rt million so'mdan oshib bormoqda. Davlat o'z vaqtida to'lab beriyapti. Bundan tashqari, tomorqamizda dehqonchilik qilish uchun suv tejovchi texnologiyalar joriy etib, aynan yashil energiyadan foydalanayapmiz. Natijada kam xarajat qilib, ko'p daromad olyapmiz. Yaqinda qo'shnilarim kelib, ishonishmadi. Hisoblab ko'rib, hayron qolishdi. Tez kunda o'zlari ham quyosh paneli o'rnatishni maqsad qildi.

### Imkoniyatlar ishga solinmoqda

G'uzorlik Shahzod Ismoilov ham joriy yil boshida 20 kVtli quyosh paneli o'rnatgandi. Boshida ba'zilar uskunalar narxi qimmat deb uni bu ishdan qaytarmoqchi bo'ldi. Shuncha pulga boshqa biror narsa xarid qilinsa, foyda olish mumkinligini aytishdi. Ammo hududiy elektr tarmoqlari bilan shartnoma tuzilib, ortiqcha energiyadan daromad olishni boshlagach, mablag'ni behuda sarflamaganiga ishonch hosil qildi. Hozir kuniga 80-90 ming so'mlik elektr sotmoqda.

— Oldinroq boshqa shaharda yashaydigan o'rtoq'im muqobil energiyadan xonadonda foydalanish afzalliklari haqida gapirgandi, — deydi Sh.Ismoilov. — Uyida mehmon bo'lganimda ko'rgandim. Ro'zg'or ehtiyojlari bepul bo'lib, undan orttirganiga davlat pul to'lab berayotgani hayron qoldirgandi. Bunday imkoniyatdan



foydalanish kerak. Shundan so'ng qiziqdim, ammo bir oz ikkilanish ham bo'ldi. Baribir tavakkal deya o'rnatdim. Rejadagidan ham ziyod bo'ldi. Hozir oyiga uch million so'mga yaqin foyda keltirmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, hududlarda aynan muqobil energiya manbalaridan foydalanish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Xususan, G'uzor tumani misolida aytsak, elektr energiyasi ta'minotida yuzaga keladigan yetishmovchilikni bartaraf etish maqsadida 2025-yilda jami 45 ming 387 ta obyektda 60 ming 771,5 kVtli quyosh panellari o'rnatish

rejalashtirilgan. Hozir tuman bo'yicha 111 ta obyektda 1587,8 kVt quvvatdagi quyosh panellari o'rnatib bo'lindi Jumladan, 48 ta aholi xonadonida 473 kVt, 24 ta ijtimoiy soha obyektda 260,6 kVt, 36 ta tadbirkorlik subyektda 410,8 kVt hamda 3 ta fermer xo'jaligiga 443,4 kVt yashil energiya olish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, joriy yil yakuniga qadar jami 5,4 ming litr hajmli geliokollektor o'rnatish rejalashtirilgan.

— "Quyoshli xonadon" dasturi bo'yicha hozirga qadar viloyat bo'yicha jami 2679 kishi hamda 1984 ta yuridik tashkilot shartnoma tuzgan, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Qashqadaryo filiali xodimi Ilhom Jabborov. — Ijoiy tafovutga o'tgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatgan aholi va yuridik shaxs maqomidagi iste'molchilarga har yili davlat tomonidan hisoblangan pullari to'lab berilmoqda. Jumladan, viloyat bo'yicha shu kunga qadar aholiga 5 milliard 300 millionga yaqin, yuridik tashkilotlar uchun 6 milliard so'mdan ortiq mablag' to'lab berilgan.

O'tgan yillar davomida bajarilgan ishlar tahlilini qiladigan bo'lsak, "Quyoshli xonadon"lar safi ortib bormoqda. Shu bilan birga, korxona va tashkilotlar ham aynan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tyapti. Bu esa kattagina tejamkorlikni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, energiyaga bo'lgan ehtiyojni qoplashga zamin yaratmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda hozirga qadar quyosh panellari quvvati 110 ming 720 kVtga yetkazilgan. Shuningdek, davlat dasturiga ko'ra, shu yilning o'zida 4379 ta obyektda 55,7 mvt quvvat beradigan quyosh panellari o'rnatish belgilangan. Ayni kunga qadar 2631 ta 42,6 kVtli quyosh panellari o'rnatildi. Natijada yanvar-iyul oylari davomida iste'molchilarga 2 milliard 112 million kVt soat elektr energiyasi yetkazib berilgan. Shu vaqt oralig'ida 428,4 million kVt soat elektr energiyasi iqtisod qiligan.

Yana bir gap. Sohada qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni joriy qilish bilan birga, hududiy tarmoqlar tomonidan energiya yetkazib berish sifatiga ham e'tibor qaratilmoqda. Masalan, viloyatda hozir 799 ming 649 iste'molchiga 202 ta podstantsiya, 32 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 11 ming 299 dona transformator orqali elektr yetkazilyapti.

Joriy yil boshidan buyon elektr ta'minotini yaxshilash uchun loyihalar, dasturlar doirasida 60 ta transformator o'rnatildi va 229,4 kilometr elektr tarmog'i yangidan qurildi.

Shuningdek, 9,6 kilometr uzunlikdagi 220 kVt L-32-M elektr tarmog'ida modernizatsiya ishlari olib borildi. Bundan tashqari, rejaga asosan, 2110 kilometr tarmoq va 694 ta transformator, 5 ta podstantsiya, 100 ta o'chirgich, 6 ta kompressor qurilmasi mukammal ta'mirlandi. Natijada, 149 ta MFYda yashovchi 71 mingdan ortiq aholi xonadonlari va 510 dan ziyod ulgurji iste'molchining elektr ta'minoti yaxshilandi.

Doimiy ravishda ishlaydigan 83 ta ta'mirlash brigadalarga 684 nafar mutaxassis, 29 ta maxsus texnika, 58 ta avtomashina jalb etilgan. Favqulodda avariya va texnik uzilishlarni tezkor bartaraf etish uchun 42 dona transformator, 15 tonna transformator moyi, 15,3 kilometr kabel, 10 tonna sim, 45 ta mufta va 1370 dan ziyod boshqa materiallar zaxirasi yaratilgan.

Qilinayotgan ishlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hududlar obod bo'lib, odamlar yaxshi yashab, turmushi farovon bo'layotganini ko'rish mumkin. Muhimi, tizimdagi islohotlar zamiri aholi roziligi yo'lida xizmat qilmoqda. Bundan inson qadri yuksalib, xonadonlar yorug', ko'ngillar charog'on bo'lyapti.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON

YANGI O'ZBEKISTON BOG'LARI MO'L HOSIL BERISHNI BOSHLADI

Bugun dunyoda iqlim o'zgarishi, yerlar degradatsiyasi va suv taqchilligi kuzatilmoqda. Bu mamlakatlar oldiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida muhim vazifalarni qo'yishi shubhasiz. Shu nuqtayi nazardan ham yurtimizda qishloq xo'jaligining yuqori salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotir. Keyingi yillarda sohani isloh qilish, qulay agrobiznes muhitini yaratish, tarmoq boshqaruvida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Agrar jihatdan imkoniyatlari keng bo'lgan Surxondaryoda ham bu o'zgarishlar o'z samarasini bermoqda. E'tibor bering, joriy yilning yanvar-mart oylarida vohada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 trilliard 61 milliard so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 3,5 foizga o'sdi. Agar hududlar kesimida buni tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yana bir raqam: shu yil yanvar-aprel oylarida Surxondaryodan 44 ming tonna meva-sabzavot xorijga eksport qilingan va uning qiymati 41,3 million dollarga yetdi.

Eksport bozorida Rossiya, Pokiston va Afg'oniston davlatlari asosiy o'rtn egalladi. Viloyatda sug'orish qiyin bo'lgan tog'oldi, lalmi hamda past rentabelli yerlarda hosildor yong'oq, bodom ko'chatlarini ekib, yangi intensiv bog'lar yaratilmoqda. 20 million dollarlik ana shunday loyihalardan biri Jarqo'rg'on tumanida ham boshlangan edi.

Tumandastashkilotilgan "SAGAGROJARQO'RG'ON" MCHJ tomonidan 1600 gektar yerda zamonaviy usulda bodom plantatsiyalari barpo qilingan. Bu yerda bodomning serhosil "Guara" va "Avijor" navlari ekilgan. Yetuk mutaxassislar va ilmiy tajribalar asosida parvarishlanayotgan 4 yillik bodom ko'chatlari hozir to'liq hosilga kirgan.



— Intensiv bodomzor tashkil etish maqsadida xorijdan urug' va ko'chatlar keltirib yerga qadagan edik. Yildan yilga hosil miqdori oshib bormoqda. 2023-yilda 500 tonna, o'tgan yili 1200 tonna hosil olingan bo'lsa, joriy yilda bu raqam 2000 tonnagacha yetishi kutilmoqda, — deydi ish boshqaruvchi Farrux Usmonov. — Kelgusida bodom hosilini qayta ishlashda ham aniq rejalarimiz bor. Shunga ko'ra, daraxtlar to'la hosilga kirgach, boqqa yaqin hududda qayta ishlash zavodi bunyod etiladi.

To'g'risi, bog' barpo qilishdan ham ko'ra yosh nihollarni to'g'ri parvarishlash va samarali hosil olish murakkab jarayon. Ayniqsa, suv tanqis hududlarda yashil bog'lar bunyod etishning o'ziga yarasha zahmati bor. Har bir qadalgan ko'chtaga alohida parvarish va tegishli agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish talab etiladi. Bu bo'yicha bugungi kunda Jarqo'rg'on tumanida agrar tarmoqning ajralmas qismi hisoblangan bog'dorchilik sohasida qator ilg'or tajribalar amaliyotga joriy etilmoqda. Keyingi yillarda hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olib, bodom yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

— Bog'imiz to'liqligicha tomchilab sug'oriladi. Innovatsion texnologiyaga asoslangan bu usul qo'llanilganda suv sarfi bir necha barobar kamayadi, — deydi agronom Otabek Bakirov. — Intensiv bog'larning afzalligi daraxtlarning tanasi kichik bo'lgani uchun ular bilan ishlash qulay. Bunday bog'larda daraxt tanasiga yorug'lik tushishi, havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun mevasining sifati yuqori bo'ladi. Hosilini terishda ham qiyinchiliklar kamayadi.

Jarqo'rg'onidagi bu ishlari, ya'ni mavjud imkoniyatlardan keng foydalanib yangi yerlarni o'zlashtirish, hudud iqlimidan kelib chiqqan mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'yish aholining farovon turmush kechirishiga, xorijiy investorlarning mamlakatga qiziqishi ortishiga, pirovard natijada iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi. Keyingi yillardagi o'zgarishlar chet ellik hamkorlar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi.

— 2017-yilda bu bog'ning turli hududlarida tuproq tahlillarini o'tkazdiki va 2018-yilning fevral-mart

oylarida ilk ko'chatlarni ekdik. Bog' hududida uch xil tuproq turi bor, shu bois, biz ulardan kelib chiqib agroteknik ishlov beramiz, — deydi turkiyalik agronom Ajlan Yilmaz. — Birinchi ko'chatlarimizni Turkiya va Ispaniyadan olib kelib ekan edik. Bu yildan boshlab O'zbekistonda tayyorlanayotgan bodom ko'chatlarini ekmoqchimiz. Chunki O'zbekiston bodomning vatani bo'lgan o'lkalardan biri. Meni ilk bor yurtimizda bodom yetishtirish loyihasisga hamkorlikka taklif qilishganda bu yerga kelib, taqir cho'li va suvsiz yerni ko'rgach, ochig'ini aytishim kerak, mahsulot yetishtirishga bir oz ishonmagandik. Yurtimizda qishloq xo'jaligi sohasi rivoji yo'lida qilinayotgan ishlar tufayli 1670 gektar yer yashil bog'ga aylandi. Hali bog'ni kengaytirish ishlari davom etadi. Kuzgi mavsumda ham yana 400 gektar yerga bodom ko'chatlari qadaymiz. Men shu soha mutaxassisi sifatida mahalliy agronomlar bilan birga ishlab, ularga o'z bilimlarimni o'rgataman, gohida ulardan o'rganaman ham. O'zbekistonda bog'dorchilikning deyarli barcha yo'nalishlari yaxshi rivojlangan. Ilmiy yondashuvlar asosida yanada rivojlanayotgani kelgusida butun dunyoda O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi.

Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Mirishkor, Kasbi tumanlari, Namanganda



Kosonsoy, Pop, Chust, Yangiqo'rg'on tumanlari, Samarqandda Qo'shrabot tumani, Jizzax viloyatining G'iblaorol, Zomin, Toshkent viloyatida Ohangaron tumanlari qatorida Surxondaryoning Jarqo'rg'on, Sariosiyo tumanlarining ayrim hududlari bodom yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Bu xususida yaqinda Jarqo'rg'on tumanida fermerlar, agrolasterlar va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun amaliy seminar ham so'z yuritildi. Tadbir doirasida bog'dorchilik, sabzavotchilik, ozuqa ekinlari yetishtirish, suvdan samarali foydalanish, agroteknologiyalar va resurs tejamkor yechimlar bo'yicha mahalliy hamda xalqaro mutaxassislar ishtirokida tajriba almashildi.

Zamonaviy agroteknologiyalar va xalqaro ilg'or tajribalarning mahalliy amaliyot bilan uyg'unlashuvi viloyatda qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Niderlandiyalik tanikli agronom Anton van Engelen bunday tadbirlardan ko'zlangan maqsad haqida quyidagilarni bildirdi:

— O'zbekistonda amalga oshirilayotgan va qo'llab-quvvatlanayotgan chora-tadbirlar yurtimizda agrar sohani modernizatsiya qilish, yangicha yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni ko'paytirish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qilmoqda. O'zim ishtirok etayotgan seminarlarda asosiy e'tibor sabzavotchilik, suv resurslaridan samarali foydalanish masalalariga qaratilmoqda. Biz o'z ma'ruzalarimizda bog'dorchilikda yuqori samaradorlikni ta'minlash, ozuqa bazasini uzluksiz shakllantirish va jahon tajribasidan kelib chiqib, ilg'or agroteknologiyalarni joriy etish haqida amaliy ma'lumotlar berdik. Xorijiy tajribalarning mahalliy amaliyotga joriy etilishi, sohaviy bilimlarning chuqurlashuvi va zamonaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishi orqali Surxondaryoda qishloq xo'jaligi yanada rivojlanishi shubhasiz.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



# FAROVON TURMUSH, OILALARGA TO‘KINLIK ULASHISH SHARAFI

## KASBIY KO‘NIKMALAR MARKAZLARINI XALQQA YAQINLASHTIRADI



mumkin. Bu ham xususiy sektorga nisbatan arzon.

Shu o‘rinda “Kasbiy ko‘nikmalar markazida o‘tiladigan darslar sifati talabga javob beradimi, o‘qituvchilar qay tartibda tanlab olinadi, ularning kasb mahoratiga qanday talablar qo‘yiladi?” degan savollar ham tug‘ilishi mumkin.

O‘qituvchilarni ishga qabul qilish uchun markazning o‘zida suhbat tashkil etiladi. Qabul qilinganlarining ham malaka, tajribasi doimiy oshirib turiladi. Misol uchun, o‘tgan yilning o‘zida 300 ga yaqin o‘qituvchi xorijga malaka oshirishga yuborildi. KOICA hamkorligida Urganchda tashkil etilgan, davlatimiz

Mazkur tizim ayni paytda Samarqand viloyati va Toshkent shahrida sinovdan o‘tkazilyapti. Albatta, biror yangilikni joriy etishning o‘ziga yarasha pastu balandi bo‘ladi. Jumladan, “vaucher olgan fuqaro o‘qishga bormasa-chi?” degan savolning asosli ekani ham yuqoridagi ikki huddudagi ba‘zi holatlarda ko‘rina boshladi. Shu ma’noda, vazirlik mutasaddilari fuqaro markazda nazariy qismni o‘qib, ko‘nikmaga ega bo‘lganidan keyingina amaliyotga o‘tkazilishi kerakligi haqidagi taklifni tayyorlaypti. O‘qish xarajatining yarmi sertifikat olinganidan keyin to‘lab berilishi ham shunday holatlardan kelib chiqib joriy qilinaypti. Har bir hududiy bo‘linmalarga vaucher olgan fuqaroning harakatini oxirigacha nazorat qilish vazifasi yuklatildi. Murojaatchi agar bir oy ichida o‘quv markazini tanlab, o‘qishni boshlamasa, vaucher o‘z kuchini yo‘qotadi. Ya’ni unga ajratilgan mablag‘ yechilib, ishsiz va kambag‘al oila a‘zosi ga beriladi.

### Manzilli talab — aniq ish o‘rni

Joriy yilning fevralidan boshlab Kasbiy ko‘nikmalar markazlarida ish beruvchilarning manzilli talabi asosida ishlanyapti. Masalan, “Artel” kompaniyasi yoz oyida konditsionerga talab juda ortgani bois, markazga buyurtma beradi. Aytaylik, 500 nafar yosh yigit-qizni konditsioner ustaligiga o‘qitish kerak, kafolatlangan ish beriladi. Buning uchun hamkorlikda qo‘shma o‘quv dasturi tashkil qilinadi. Ish beruvchining o‘zi malaka imtihonida ishtirok etadi va xodimlarni o‘zi saralab oladi.



rahbari tashrif buyurgan Kasbiy ko‘nikmalar markazida bir yil avval tanlov e‘lon qilingan. Har bir soha uchun 30-35 ga yaqin talabgor murojaat qilgan. Saralanganlar orasidan har bir yo‘nalish bo‘yicha 3 kishi Janubiy Koreya hukumati tomonidan 2 oylik malaka oshirishga yuborildi. Malaka oshirib kelganidan keyingina ular lavozimga qabul qilindi. Shuni ham aytish joizki, Janubiy Koreya hamkorligida tashkil etilgan markazlarda tor doiradagi kasblar o‘rgatiladi. Masalan, elektrotexnika, payvandchilik, santexnika, kosmetologiya, turizm. Binobarin, Janubiy Koreya ta‘lim standarti sal boshqacharoq. 6+2 dasturiga ko‘ra, chilangar bo‘lmoqchi bo‘lsangiz, 6 oy o‘qib, 2 oy amaliyot o‘taysiz, shunda 8 oy bo‘ladi. Bu vaqt davomida agar fuqaro koreys tilini o‘rganib, B1, B2 darajadagi ko‘nikmaga ega bo‘lsa, Janubiy Koreyaga ishlagani borish imkonini ko‘proq bo‘ladi.

Elektromobillarga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida esa Xitoyning BYD kompaniyasi bilan shartnoma tuzilgan bo‘lib, o‘qituvchilar Xitoyda kasbiy malaka oshiradi. Qisqacha aytganda, markazlardagi o‘qitish standartlari, dasturlari barcha hududda bir xil.

### “Ta‘lim ortidan pul boradi” tamoyili nechog‘liq samara beradi?

Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga ko‘ra, endilikda ishsiz aholini, jumladan, ustuvor ravishda kambag‘al oilalar a‘zolarini kasb-hunarga o‘qitish xarajatlari qoplab berish bo‘yicha vaucher tizimi joriy qilinadi. Bunda o‘qish xarajatlari fuqaro tanlagan ta‘lim huddudidagi korxonalar, til va kasb markazlari bilan gaplashib, o‘quvchilarni ularga bog‘lab beradi, sport va fanlarga qiziqadiganlarni to‘garaklarga jalb etadi. Ushbu tadbirlar uchun “Yoshlar daftari” orqali berilgan mablag‘larni ishlatadi.”

208 ta tuman (shahar)da bandlik bo‘limlari mavjud. Fuqaroga ana shu bo‘limlar Kasbiy ko‘nikmalar markazlarida kasb o‘rganishi uchun yo‘llanma beradi va shu asosda o‘qish tashkil qilinadi. Markazlarning asosiy vazifasi ham ishsiz yoki vaqtincha ishi yo‘q fuqaroga o‘zi tanlagan bir kasbni o‘rgatish. O‘qish davomiyligi qisqa muddatli (o‘rtacha 4 hafta, bir oygacha), o‘rta muddatli (5 haftadan 25 haftagacha), uzoq muddatli (40 haftagacha) bo‘ladi. Kasb ko‘nikmasiga ega bo‘lganlarga sertifikat, diplom beriladi. Kasb-kori bor, biroq hech qayerda ishlamayotgan fuqaro esa bandlik bo‘limi tomonidan ishga yo‘naltiriladi. Aytaylik, elektr ustasi keldi. Unga qayerdadir bo‘sh ish o‘rni tavsiya etiladi.

O‘z kasbidan tashqari qo‘shimcha kasb ko‘nikmasini olmoqchi bo‘lganlar esa shartnoma asosida pulli kurslarda o‘qishlari mumkin. Bu ham xususiy sektorga nisbatan arzon. Shu o‘rinda “Kasbiy ko‘nikmalar markazida o‘tiladigan darslar sifati talabga javob beradimi, o‘qituvchilar qay tartibda tanlab olinadi, ularning kasb mahoratiga qanday talablar qo‘yiladi?” degan savollar ham tug‘ilishi mumkin. O‘qituvchilarni ishga qabul qilish uchun markazning o‘zida suhbat tashkil etiladi. Qabul qilinganlarining ham malaka, tajribasi doimiy oshirib turiladi. Misol uchun, o‘tgan yilning o‘zida 300 ga yaqin o‘qituvchi xorijga malaka oshirishga yuborildi. KOICA hamkorligida Urganchda tashkil etilgan, davlatimiz



Tashabbus

## DOLZARB 90 KUN

### BU VAQTINCHALIK TADBIRLAR MAJMUASI EMAS

“Dolzarb 90 kun” tashabbusi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Binobarin, ushbu loyiha bir qarashda vaqtinchalik tadbirlar majmuasiga o‘xshab ko‘rinsa-da, mohiyatan u xalq bilan ishlash, yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ta‘lim tizimi va davlat tashkilotlari faoliyatida “natija” hamda “samara” tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli milliy islohotlar maydonidir.



Dilshodbek RUSTAMOV, Andijon davlat chet tillari instituti rektori

Andijon davlat chet tillari institutida ham “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida tizimli va maqsadli ishlar olib borilmoqda. Loyiha asosiy e’tiborni yozgi ta’til davrida yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, chet tillari va zamonaviy kasblarga yo‘naltirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va eng muhim, ularni jamiyatning faol a‘zolariga aylantirishga qaratadi.

Bugungi kunda yoshlar bilan ishlash masalasi global darajadagi muhokama markazida turibdi. Zero, har bir davlat o‘z taraqqiyoti va xavfsizligida aynan ma’naviy barkamol, kasb va til egasi bo‘lgan yosh avlodga tayanadi. “Dolzarb 90 kun” loyihasi shuni amalda isbotlayotgan yirik tashabbusdir. Uning dolzarbligi, birinchi navbatda, har bir oliy ta’lim muassasasiga aniq vazifa qo‘yilgani va ular ijrosi bo‘yicha monitoring hamda baholash tizimi joriy e’tilganida namoyon bo‘ladi.

Nafaqat tashkilotlar faoliyatiga javobgarlikni kuchaytirdi, balki yoshlar bilan ishlashda muayyan yondashuvlar shakllanishiga ham zamin yaratadi. Institutimizda loyihani samarali tashkil etish va natijadorlikka erishish maqsadida ishlar tizimli asosda yo‘lga qo‘yildi. Uning o‘ziga xosligini chuqur anglangan holda, institut rahbariyati va jamoasi tomonidan bir qator muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratildi. Amalga oshirilgan har bir tashabbus, avvalo, yoshlarning real ehtiyojlari, qiziqishlari va zamon talablari asosida shakllantirildi. Til kurslari, IT saboqlari, sport musobaqalari, madaniy-ma’rifiy kechalar — bularning har

zamonaviy treninglari, o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Loyiha doirasida tashkil etilgan Call-markazi orqali institutga 500 ga yaqin yosh murojaat yo‘llab, kurslarga yozildi. Murojaatlarning ko‘pligi sababli qo‘shimcha guruhlar ochildi.

Tadbirlar davomida faqat son jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham monitoring olib borildi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha ishtirokchilar ko‘rsatkichlari, talab va fikrlar o‘rganildi. Shu asosda yangi guruhlar ochildi, talab yuqori yo‘nalishlar kengaytirildi. Bunday yondashuv ishlar tizimligi va natijadorligini ta’minladi.

Talabalarni ma’naviy va ruhiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlashga tajribali ustozlar, psixologlar va murabbiylar jalb qilindi. Yozgi oromgohda aynan shaxsiy rivojlanish, o‘zini anglash, hayotiy maqsadlarni belgilash kabi mavzular asosida treninglar o‘tkazildi.

Barcha tadbirlarda ijtimoiy himoyiga muhtoj, nogironligi bo‘lgan, oilaviy sharoit og‘ir yoshlar alohida e’tiborga olingan. Ular uchun maxsus yo‘riqchilar biriktirilib, faol ishtirokchilarga sharoitlar yaratildi. Bu orqali “hech kim ortda qolmasin” tamoyiliga amal qilindi.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi yoshlarning yozgi ta’til davrida ijtimoiy beqarorlik, bekorchilik, yot g‘oyalari ta’siriga tushish kabi xavflardan uzoqda bo‘lishini ta’minladi. Har bir yoshning maqsadli bandligi orqali jinoyatchilikning oldi olindi, ijtimoiy faollik ortdi, ruhiy salomatlik mustahkamlandi.

Institutda bepul tashkil etilgan chet tillari va IT kurslari yoshlarning o‘z ustida ishlash



biri shunchaki son emas, balki mazmunga ega bo‘lgan faoliyat sifatida ko‘zda tutilgan.

Tadbirlar tashkil etilar ekan, faqat institut talabalari emas, balki viloyatning tuman va shaharlaridagi yoshlarga ham eshiklar ochildi. Bu esa loyiha orqali yoshlarda jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirib, universitet devorlaridan tashqariga chiqadigan ijtimoiy ta’sir doirasini kengaytirdi.

Ingliz, rus, koreys, nemis, xitoy tillari bo‘yicha bepul o‘quv kurslari tashkil qilinib, ularida hozirga qadar 287 nafar yosh qatnashmoqda. Bundan tashqari, IT va raqamli savodxonlik kurslari doirasida 63 nafar ishtirokchi raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy bilimga ega bo‘ldi. Ushbu kurslar talab yuqoriligi sababli kengaytirildi.

Mini futbol, suzish, kurash, voleybol, stol tennis, shaxmat va boshqa sport turlarida 90 ga yaqin yosh faol ishtirok etmoqda. 8 ta sport musobaqasi o‘tkazilib, 294 nafar yosh qamrab olindi. Yil yakunigacha 14 ta musobaqa, 600 dan ortiq ishtirokchi olinishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, institutda “She’riyat kechasi”, “Badiiy asar tahlihi”, “Film tahlihi” kabi madaniy-ma’rifiy loyihalarga 1200 dan ortiq yoshlar jalb etildi.

Andijon viloyatining tarixiy maskanlariga 7 ta ziyorat tashkillashtirilib, 250 nafar yosh ishtirok etdi. Mavjud reja asosida yana 8 ta ziyorat, 300 dan ortiq yosh qamrab olinishi ko‘zda tutilgan.

Xonobod shahrida joylashgan “Turizm o‘quv laboratoriyasi” negizida 80 nafar eng namunal talaba uchun yozgi oromgoh tashkil qilindi. Bu yerda OTM mentorlarining

madaniyatini kuchaytirdi. Har bir ishtirokchi loyihani o‘z hayotiga yangi imkoniyat sifatida qabul qiladi.

Loyiha yakuniga qadar 500 dan ortiq yosh ikki chet tilini boshlang‘ich yoki o‘rta darajada egallaydi, 100 nafardan ortig‘i IT mutaxassisligiga asosiy qadami qo‘yadi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, badiiy asar tahlillari va “She’riyat kechalari” orqali yoshlar jamiyat hayotiga faol qo‘shila boshladi. Ularida ijtimoiy mas’uliyat, o‘z fikrini ochiq bayon etish, mustaqil fikrlash, Vatanga daxldorlik hissi shakllanmoqda.

Loyihaning eng muhim natijalaridan biri shundaki, institut jamoasi Prezident tashabbusini qog‘ozda emas, amalda hayotga tatbiq etdi. Bu loyiha talaba yoshlar davlat siyosatiga befarq emasligini his etmoqda. “Dolzarb 90 kun” Andijon davlat chet tillari institutida qisqa muddatda ham muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltira oldi. U oddiy “yozgi mashg‘ulotlar rejasidan” tubdan farq qiladi: bu loyiha yoshlar hayotiga mazmun, intilish va maqsad olib kirdi. Loyiha faqat yozgi mavsum tadbiri emas, bu — yoshlar salohiyatini uyg‘otuvchi, ularni jamiyatga integratsiyalovchi ijtimoiy mexanizmdir. Bu orqali institutimiz yoshlar uchun imkoniyatlar eshigini ochdi. Ularni kasb, til, ma’naviyat va sport bilan bog‘ladi. Ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minladi. Jamoa mas’uliyatini oshirdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oliy ta’lim muassasasi nafaqat bilim beruvchi markaz, balki jamiyatga foydali shaxs yetishtiruvchi tarbiya o‘chog‘i bo‘lishi kerak. Biz aynan shu yo‘ldan boryapmiz.

### Nom o‘zgardi, mohiyat-chi?

Avvalo, yo‘lda ko‘rganimizdek, maskanlarning rasmiy nomida bir to‘xtamga kelib olaylik. Chunonchi, kimdir ularni Kasb-hunarga tayyorlash markazi, kimdir monomarkaz, yana birov kasbiy markaz deb atayapti. Vazirlik xodimlari esa Prezidentimizning 2024-yil 4-oktabrdagi qaroriga asosan, bu binolar Kasbiy ko‘nikmalar markaziga deb ataloyotganini ma’lum qildi. Zero, ayni qaror bilan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida 64 ta shunday markaz 2017-yildan ish boshlagan avvalgi monomarkazlar negizida 14 hududda qayta ochildi. Ularning 5 tasi Koreya hamkorlik agentligi — KOICA grantlari asosida tashkil etildi. Kasbiy ko‘nikmalar markazlari monomarkazlarda mavjud bo‘lmagan 10 dan ziyod yangi turdagi zamonaviy kasb turi bilan takomillashdi. Quyosh panellariga, elektromobillarga xizmat ko‘rsatish, suv tejoychi texnologiyalar bo‘yicha ishlash, IT, kompyuter grafikasi, mobilografiya kabilar shular jumlasidan. Bundan tashqari, har yili kasbiy yo‘nalishlar turlarini yangilab turish amaliyoti joriy qilindi. Chunonchi, kasb turlari bozor talabiga ko‘ra, kelajak kasblari kirib kelishi nuqtayi nazaridan o‘zgarib turadi. Yaqin orada bu borada so‘rovnoma o‘tkazish ham ko‘zda tutilaypti. Zero, jamoatchilik fikriga tayanib ish ko‘rish, xalqning ichidagini olib, o‘ziga berish faoliyatini yanada jonlantiradi.

Yana bir jihat shundaki, markazlarga rivojlangan davlatlardan eng so‘nggi texnologiyalar keltirilaypti. Birgina o‘tgan yili Jahon bankingi qariyb 8 million dollarlik granti asosida 10 dan ortiq markazga kran mashinisti stimulyatori olib kelindi. Davlatimiz rahbari ham shu yil 30-iyun kuni yoshlar bilan uchrashuvi chog‘i “Respublikamiz bo‘yicha 15 mingga yaqin o‘quv va 7,5 mingga kasbga tayyorlash markazlari mavjud. So‘nggi yillarda ular uchun 100 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berdik.





## DUNYODA — BIR KUN, YURTIMIZDA — BIR HAFTA

### “DO‘STLIK” FESTIVALI 25-31-IYUL KUNLARI TURLI MILLAT VAKILLARINI ATROFIGA JAMLAYDI

#### Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari 7 tilda olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda tahsil olayotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Barcha hududlarimizdagi “Do‘stlik uylari” turli millatga mansub fuqarolar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda.

Tinchlik, millatlar o‘rtasidagi ahillik, hamjihatlik bebaho ne‘mat. Yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida millatlararo totuvlik, o‘zaro ahillik va birkorlik, tinchlik g‘oyalari mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Davlatimiz rahbari tashabbusi asosida har yili 30-iyul yurtimizda “Xalqlar do‘stligi” kuni sifatida keng nishonlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita tomonidan tashkil etilgan va 25-31-iyul kunlari davom etadigan “Do‘stlik” festivali ham bu boradagi oqilona hamda uzoqni ko‘zlovchi siyosatning amaldagi yorqin namunasidir.

Poytaxtimizda start olgan mazkur festivalning ilk tadbiri turli millat vakillari, milliy madaniyat markazlari vakillari, keng jamoatchilikning “Yangi O‘zbekiston” majmuasiga tashrifi bilan boshlandi. Festival ishtirokchilari “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi muhtasham badiiy obida — Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydilar.

— “Do‘stlik” festivallarining tashkil etilishi mamlakatimizda millatlar o‘rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, jamiyatimizda o‘zaro hurmat, mehr, bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi davlat siyosatiga hamohang, — deydi qo‘mita raisi Qahramon Sariyev. — Festival dasturi kun tartibidan bir-bridan betakror tadbirlar, anjumanlar, musiqiy dasturlar, taqdimotlar, ko‘rgazma, xalqaro hunarmandchilik yarmarkasi, ijodiy uchrashuvlar, konsert va tanlovlar joy olgan. Bu yilgi festivalning o‘ziga xos jihati shundaki, uning doirasiga Qirg‘iz

madaniyati kunlari tadbirlari ham kiritilgan. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatdan shoir, yozuvchi, san‘atkor va jamoatchilik vakillaridan iborat katta delegatsiya festivalda mehmon sifatida ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida “Do‘stlik” festivali munosabati bilan gala-konsert, shuningdek, Toshkent Fotosuratlar uyida “Do‘stlik nigohi” qardosh xalqlar fotosuratlari ko‘rgazmasi tashkil etildi. Unda yurtimizda barcha millat vakillarining emin-erkin ijod qilishi uchun yaratilgan sharoitlarning amaliy natijalarini ko‘rish va tanishish imkoniyati yaratilgan. Haftalik doirasida bugun Toshkentdagi “Navro‘z” etno-bog‘ida “Ona zamin bag‘ridan” deb nomlangan tadbir, Yozuvchilar uyushmasida xalqlar do‘stligiga bag‘ishlangan ijodiy uchrashuv va adabiy mushoiralar o‘tkazish nazarda tutilgan.

Kunning ahamiyatli voqealaridan biri esa, shubhasiz, bu qo‘mita binosi joylashgan maydonda yurtimizdagi milliy madaniy markazlar pavilyonlarining ochilish tadbiridir. Unda respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan 22 ta markazning taqdimoti bo‘lib o‘tadi.

Erta esa poytaxtimiz “Ummummilliy hamjihatlikni mustahkamlash — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim asosi” mavzusidagi xalqaro konferensiyaga mezbonlik qiladi. Mazkur yirik tadbirda bugun dunyoda kechayotgan murakkab sharoitda o‘zaro hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, bu borada do‘stlik jamiyatlar va milliy madaniy markazlarning roli va ahamiyati, hissasi atroflicha muhokama etiladi.

Shuningdek, yurt taraqqiyoti, yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, xalqlar do‘stligini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shayotgan vatandoshlar, milliy madaniyat markazlari, hamkor vazirlik va idoralarning vakillarini “Xalqlar do‘stligi” nishoni bilan taqdirlashga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bolalar yozgi oromgohlarida “Do‘stlik bolalikdan

boshlanadi” nomli ma‘rifiy tadbirlar, hududlardagi madaniyat va istirohat bog‘larida, xiyobon va sayilgohlarda festival munosabati bilan san‘atkorlar va milliy madaniy markazlar badiiy jamoalari ishtirokidagi “Do‘stlik ohanglari” deb nomlangan konsert dasturlari, turli xalqlarning hunarmandchilik ijodiyoti namunalari, musavvirilar asarlaridan iborat ko‘rgazmalar tashkil etilgan.

Ta‘kidlash joizki, keyingi yillarda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirish



ishlari yangi, yuqori bosqichga ko‘tarildi, — deydi Respublika Ozarbayjon milliy madaniyat markazi raisi Mobil Mamedov. — Ma‘lumki, BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 30-iyul butun dunyoda Xalqaro do‘stlik kuni sifatida nishonlanadi. O‘zbekistonning kuchli bag‘rikenglik siyosati tufayli bu bayram, mana bir necha yillardan beri yurtimizda haftalik festival shaklida o‘tkazib kelinmoqda. Ko‘p millatli xalqimiz bu sanani ko‘tarinki ruhda kutib olgani.

Xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar ham O‘zbekistonning do‘stlik va insonparvarlik diyorlari sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. “Xalqlar do‘stligi” festivali doirasida o‘tkazilayotgan turli madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-amaliy tadbirlar hayotimiz qoidasiga aylangan “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” degan g‘oyat muhim tamoyilni yanada keng qaror toptirishda beqiyos ahamiyatga ega.

**Nodir MAHMUDOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## QARDOSHLIK RISHTALARI MUSTAHKAM BO‘LGAY

Yurtimizda asrlar davomida turli millat va elat vakillari ahil, inoq yashab kelgan. Mustaqillik davrida, ayniqsa, inson qadri hamda qaddi yuksalayotgan so‘nggi yillarda barcha millat va elat farzandlarining puxta bilim olishi, qobiliyatini namoyon etishi, madaniyati, san‘ati, urf-odat va an‘analari rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Iqtisodiyotimiz yuksalishi, xalqimiz farovonligining o‘shishi, yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida obro‘-e‘tibori va nufuzi ortib borayotganida ushbu do‘stlik va hamjihatlikning ahamiyati beqiyosdir.

Yurtimiz va qo‘shni davlatlarda yashayotgan turli millat vakillarining ahil-inoq hayot kechirishi, o‘zaro do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashda adabiy aloqalar, badiiy tarjimaning ahamiyati ham katta, albatta.

Namanganlik yozuvchi, tarjimon Qodirjon Nosirov bilan Do‘rmonda tanishganmiz. Qodirjon aka dastlab bir necha hajviyarni tarjima qildi. O‘zim ko‘p yillardan buyon qardosh xalqlar adiblarining komediyasi, hikoyasi va hajviyalarini tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim etib kelyapman.

So‘nggi yillarda rus tilida “И смех, и грех”, qirg‘iz tilida “Nyrmkese”, qoraqalpoq tilida “Esim qurysin” kitoblarim chop etildi. O‘n bosma taboqdan ortiqroq hajmdagi “Amerikalik qonshularim” (Amriqolik qo‘shnilarim) nomli yana bir kitobim Bishkekda nashr etildi. O‘g‘rilgan asarlarim asosan, hajviya va hangomalar ekanini bois, o‘zbek kulgisini boshqa millatlar orasida ham jaranglashiga hissa qo‘shayotganidan mamnunman.

Har qanday ijodkor asarlarini ko‘proq o‘quvchi o‘qishini istaydi. Bu hol ko‘p jihatdan tarjimon va nashrlarga bog‘liq. Turli xalqlar orasida muxlislarim doirasiga kengayib borishda hajviya, hangomalarimni rus tiliga o‘g‘rilgan Qodirjon Nosirov, qirg‘iz tarjimonlari To‘raboy Jo‘royev, Aytmirza Abilqasimov, qoraqalpoq shoiri va tarjimoni Turkmenboy Jiyemuratovning xizmatlari katta.

Esimda “И смех, и грех” taqdimoti o‘zim ko‘p yillar ilmiy-pedagogik faoliyat yuritgan Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida o‘tkazilgandi. O‘shanda bu kabi tadbirlar millatlararo do‘stlik va qardoshlik aloqalari mustahkamlanishida ahamiyatli ekanini dildan his qilganman.

Qoraqalpoq shoiri va tarjimoni, do‘stim Turkmenboy Jiyemuratov bilan



ham Do‘rmon ijod uyida tanishganmiz. U avval hajviyalarimni tarjima qilib, “Erkin Qoraqalpog‘iston”, “Qoraqalpoq adabiyoti”, “Qoraqalpoq yoshlari” gazetalari, “Amudaryo” jurnali sahifalarida e‘lon qildi. Keyin kitob qilish istagi tug‘ilgach, Beknazar Yernazarov, Marat Tao‘muratovning tarjimalari ham qo‘shildi va “Esim qurysin” to‘plamim Nukusda “Jazyo‘shy” nashriyotida chop etildi.

Qirg‘izistonlik ijodkor do‘stlarimiz bilan o‘zaro bordi-keldi va ijodiy aloqalarimiz ham samarali bo‘lyapti. Bir guruh ijodkorlar 2022-yil may oyida Qirg‘izistonning Laylak tumanida ulug‘ qirg‘iz oqini Qurbonali Sobirov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan adabiyot kunlarida ishtirok etgandik.

Go‘zal va maftunkor tabiati, adabiyot va san‘atga oshno, mehmondo‘st va bag‘rikeng xalqi bilan bizda bir olam taassurotlar qoldirgan qardoshlar diyorida adabiyot kunlariga Bishkekdan kelgan qirg‘iz xalq oqini Akbar Risqul, taniqli shoirlar O‘mirbek Tillaboyev, Abllaat Doorov, o‘zbek-qirg‘iz adabiy aloqalari jonkuyarlari, shoir Oxun Jo‘ra, jurnalist Sohiba Shokirova kabi ko‘plab ijodkorlar bilan tanishdik, bir-birimizga kitoblar sovg‘a qildik.

Safardan qaytganimizdan so‘ng uncha ko‘p vaqt o‘tmay, telefonimga “Kitobingizning tarjimasini nihoyasiga yetdi. ... raqamga qo‘ng‘iroq qiling”, degan xabar keldi. Qo‘ng‘iroq qildim. O‘shakni adabiyot kunlarida tanishgan shoir do‘stimiz, Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi To‘raboy Jo‘royev oldi va “Nimkosa” kitobim unga ma‘qul bo‘lganini, safarda yurganimga dayoq tarjimanini boshlaganini, qaytgach, boshqa ish qilmay uni yakunlaganini, endi kitobni nashr ettirish niyatida ekanini aytdi. Kitobcha ko‘pchilikka manzur bo‘layotganini qo‘shib qo‘ydi. Mammun bo‘lib, minnatdorlik bildirdim.

Oradan bir muncha vaqt o‘tib, kitob nashr etilgan haqida xabar oldik. Keyinroq qirg‘izistonlik ijodkor do‘stlarimiz shu jangi kitobim taqdimotiga taklif etdi. O‘sh davlat universitetida qirg‘iz tilida chop etilgan “Nyrmkese” kitobim taqdimoti munosabati bilan ma‘naviy-ma‘rifiy, adabiy-badiiy anjuman bo‘ldi. Qirg‘iz yigit-qizlarining qizg‘in savol-javob, muloqotlari ularning

kitobga, badiiy adabiyotga oshno ekanini yaqqol ko‘rsatdi.

Keyinroq “Amir Temur va Temuriylarning dunyo sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusida hamkorlikdagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani O‘sh shahrida yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida Xalqaro Amir Temur jamoat fondi raisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali rahbarligida bir guruh olim va ijodkorlar bilan qardoshlar yurtida bo‘ldik.

Tarixchi olimlar, ijodkorlar, jurnalistlar, jamoatchilik vakillari ishtirok etgan anjumanda Sohibqiron bobomizning adolatni o‘ziga shior qilib olgani, muhri va uzugida ham “Kuch — adolatda” shiori bitilgani, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlariyu oddiy maishiy munosabatlarda ham adolat tamoyillariga qat‘iy amal qilgani haqida so‘z bordi.

Amir Temur hayoti, faoliyati va ma‘naviy merosini, davlat boshqaruvi, adolat tamoyillari, inson qadriini ulug‘lash borasidagi qarashlarini o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi kunda davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash hamda yoshlarni vatandarparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega ekanini e‘tirof etildi. Ilmiy-ijodiy hamkorlik ishlari ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish xususida fikr almashildi.

Mamlakatimizda so‘nggi yetti-sakkiz yilda yaqin qo‘shnilar bilan aloqalarimizni tiklash va yaxshilash bo‘yicha katta ishlar qilindi. Natijada qardosh xalqlar aloqalarini kengaytirish, do‘stligini mustahkamlash va rivojlantirishga erishilmoqda.

Har gal adabiy aloqalarimiz, mustahkam qardoshlik rishtalarimiz haqida o‘ylaganimda, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi satrlari quloqlarim ostida jaranglaydi:

**Matlab bir bo‘lmasa — jam bo‘lmagaymiz,**

**Jam bo‘lsak — boshimiz xam bo‘lmagaymiz.**

Jam qilsak, insofu diyonatni ham, Dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagaymiz

**Habib SIDDIQ,**  
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ  
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN  
QR-KODNI SKANER QILING!



Qiyok Pordayev (O‘ZA) suratlari.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”  
gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** — 746.  
34972 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 21:20